



## KURASH CHORALARI

1

Toshtemirov Aminjon XXX



## ABSTRACT

Ma'lumki dunyo dehqonchiligida eng dolzarb muammalardan biri bu ekinlarning zararli organizmlariga qarshi uyg'unlashgan usulda kurashish hamda ekologik toza mahsulot yetishtirish hisoblanadi. Samarqand viloyati sharoitida pomidor ekinida issiqxona oqqanoti (*Trialeurodes vaporariorum* Westw) keng tarqalib katta iqtisodiy zarar yetkazib keladi. Mazkur maqolada issiqxona oqqanoti (*Trialeurodes vaporariorum* Westw.) zararkunandasining tarqalishi, zarari hamda unga qarshi kurash choralari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

2

Tolibayev Oybek Mirzaboyevich



## KEYWORDS

issiqxona oqqanoti

hasharot

pomidor

preparat

Clothianidin

pymetrozine

biologik samaradorlik

kurash choralari

intensiv agrotehnologiya

тепличная тля



O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Samarqand mintaqaviy filiali.

**Annotatsiya.** Ma'lumki dunyo dehqonchiligida eng dolzarb muammolardan biri bu ekinlarning zararli organizmlariga qarshi uyg'unlashgan usulda kurashish hamda ekologik toza mahsulot yetishtirish hisoblanadi. Samarqand viloyati sharoitida pomidor ekinida issiqxona oqqanoti (*Trialeurodes vaporariorum* Westw) keng tarqalib katta iqtisodiy zarar yetkazib keladi. Mazkur maqolada issiqxona oqqanoti (*Trialeurodes vaporariorum* Westw.) zararkunandasining tarqalishi, zarari hamda unga qarshi kurash choralari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** issiqxona oqqanoti, hasharot, pomidor, preparat, Clothianidin, pymetrozine, biologik samaradorlik, kurash choralari, intensiv agrotehnologiya.

**Аннотация.** Известно, что одной из наиболее актуальных проблем мирового сельского хозяйства является комплексная борьба с вредителями сельскохозяйственных культур и производство экологически чистой продукции. В условиях Самаркандской области тепличная тля (*Trialeurodes vaporariorum* Westw) широко распространена на томатных плантациях и наносит значительный экономический ущерб. В данной статье представлены сведения о распространении, вредоносности и мерах борьбы с тепличной белокрылкой (*\*Trialeurodes vaporariorum\** Westw.).

**Ключевые слова:** тепличная тля, насекомое, томат, препарат, клотианидин, пиметрозин, биологическая эффективность, меры борьбы, интенсивная агротехнология.

**Annotation.** It is known that one of the most pressing problems in world agriculture is the integrated fight against crop pests and the production of environmentally friendly products. The greenhouse aphid (*Trialeurodes vaporariorum* Westw) is widespread in tomato crops in the Samarkand region, causing significant economic damage. This article provides information on the distribution, damage, and control measures of the greenhouse aphid (*Trialeurodes vaporariorum* Westw.). This article provides information on the distribution, damage, and control measures of the greenhouse whitefly (*Trialeurodes vaporariorum* Westw.).

**Key words:** greenhouse aphid, insect, tomato, drug, Clothianidin, pymetrozine, biological effectiveness, control measures, intensive agrotechnology.

**Kirish.** Xalqimizning rizqi ro'zi, nasibasi avvalo dalalarimizda zahmatkash dehqonlarimiz tomonidan yetishtiriladigan mahsulotlar, oziq-ovqat va nozu-ne'matlar bilan o'lchanadi. Qishloq xo'jaligi ekinlari xalqimizning asosiy oziq-ovqat manbai bo'lib, ulardan ko'proq hosil olish sohaning asosiy dolzarb vazifalaridan biridir. Lekin qishloq xo'jalik ekinlariga zararkunanda hasharotlar, kasallik qo'zg'atuvchilar, begona o'tlar va boshqa zararli organizmlar zarar yetkazib hosildorlikka jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Barcha qishloq xo'jaligi ekinlarida uchragani kabi sabzavot va poliz ekinlariga ham bir qancha zararkunanda hasharotlar, kasalliklar va begona o'tlar uning o'sib rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Zararli organizmlarga qarshi o'z vaqtida kurash choralari olib borilmasa hosildorlikning katta qismi nobud bo'ladi.

Pomidor va poliz ekinlaridan bodringa jiddiy zarar keltiruvchi zararkunanda hasharot issiqxona oqqanotidir. Zararkunanda respublikamizning barcha hududlarida uchraydi. Maskur zararkunanda qishloq xo'jaligi ekinlari turli organlarini zararlab hosilning katta qismini nobud bo'lishiga sabab bo'ladi va jiddiy zarar yetkazadi. [].

**Tajriba o'tkazish joyi va uslublari:** Samarqand viloyati Oqdaryo tumani "Golden Sedd" M.Ch.J ga qarashli 2 gektarlik issiqxonada yetishtirilayotgan pomidor va bodring ekilgan maydonlarida olib borildi. Pomidor va bodring ekinidagi issiqxona oqqanoti soni belgilangan metodika bo'yicha hisob qilindi [4].

Ajratib olingan preparatlar Konfidor s.e.k. (0,3 l/ga), Pilarta 22% sus.k. (0,6 l/ga) hamda andoza sifatida Mospilan 20% e.kuk. (0,2 kg/ga) preparatlari yordamida belgilangan sa'rf me'yorida qo'l purkagich apparatida ishlov o'tkazildi.



tashkil qildi. Nazorat variantida hech qanday ishlov o'tkazilmadi va hisob kunlari zararkunanda hasharotlar sonining oshganligi kuzatildi (1-Jadval). Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, kimyoviy preparatlar qo'llashning barcha variantlarida hisoblashning 7-kunida yuqori biologik samaradorlikka erishildi. Ulardan eng yuqorisi Pilarta 22% sus.k. preparatini issiqxona oqqanotiga qarshi 0,6 l/ga sarf me'yorida qo'llanilganda yuqori biologik samaradorlikka erishish mumkinligi aniqlandi.

Bodiringda issiqxona oqqanotiga qarshi Pilarta 22% sus.k. preparatini 0,6 l/ga sarf me'yorida qo'llanilgandan so'ng 3- 7- va 14-kunlarda hasharotlarni hisoblash ishlari o'tkazildi. Preparatning biologik samaradorlik ishlovdan so'ngi 3-kuni 67,5%, 7-kuni 88,3% va 14-kuni 86,0% ni tashkil qildi. Konfidor s.e.k. preparatini 0,3 kg/ga qo'llaganimizda samaradorlik ishlovdan so'ngi 3-kuni 64,0%, 7-kuni 86,5% va 14-kuni 85,5% ni tashkil qildi. Andoza sifatida olingan Mospilan 20% e.kuk. 0,3 l/ga qo'llanilgan variantda 3-kuni 63,2%, 7-kuni 85,6% va 14-kuni 84,0% ni tashkil qildi. Nazorat variantida hech qanday ishlov o'tkazilmadi va hisob kunlari zararkunanda hasharotlar sonining oshganligi kuzatildi (2-Jadval). Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, kimyoviy preparatlar qo'llashning barcha variantlarida hisoblashning 7-kunida yuqori biologik samaradorlikka erishildi. Ulardan eng yuqorisi Pilarta 22% sus.k. preparatini issiqxona oqqanotiga qarshi 0,6 l/ga sarf me'yorida qo'llanilganda yuqori biologik samaradorlikka erishish mumkinligi aniqlandi.

#### 1-jadval.

#### Samarqand viloyati sharoyitida pomidor ekiniga zarar beruvchi issiqxona oqqanotiga qarshi kurash choralari

(Samarqand viloyati oqdaryo tumani, Golden Sedd" M.Ch.J ga qarashli issiqxona 2026 yil.)

| t/r | Preparatlarni nomi           | Ta'sir etivchi moddasi      | Sarf me'yori kg/ga yoki l/ga                 | Bitta bargdagi oqqanot soni, dona | Ishlov berilgandan keyin qolgan oqqanot soni, dona |       |        | Biologik samaradorlik |       |
|-----|------------------------------|-----------------------------|----------------------------------------------|-----------------------------------|----------------------------------------------------|-------|--------|-----------------------|-------|
|     |                              |                             |                                              |                                   | 3 kun                                              | 7 kun | 14 kun | 3 kun                 | 7 kun |
| 1.  | "Pilarta 22%" sus.k.         | Konfidor, s.e.k             | Imidacloprid 200g/l(III havfli snif )        | 0,3                               | 9,8                                                | 3.2   | 1.9    | 2,4                   | 74,1  |
| 2.  | Konfidor 20% em.k.<br>Andoza | "Pilarta 22%" sus.k.        | (Clothianidin 110 g/l + pymetrozine 110 g/l) | 0,6                               | 9,2                                                | 2,8   | 1,7    | 2,1                   | 76,0  |
| 3.  | Mospilan 20 % e.kuk. andoza  | Mospilan 20 % e.kuk. andoza | (Acetamiprid 200 g/kg)                       | 0,3                               | 8,5                                                | 2,9   | 1,8    | 2,2                   | 73,0  |
| 4.  | Nazarot (Ishlov berilmagan)  | Nazorat (ishlovsiz)         |                                              | -                                 | 8,7                                                | 11    | 13,5   | 14,6                  | -     |

#### 2-jadval.

#### Samarqand viloyati sharoyitida bodring ekiniga zarar beruvchi issiqxona oqqanotiga qarshi kurash choralari

(Samarqand viloyati oqdaryo tumani, Golden Sedd" M.Ch.J ga qarashli issiqxona 2026 yil.)



|    |                                       |                                                       |     |      |      |      |      |      |      |
|----|---------------------------------------|-------------------------------------------------------|-----|------|------|------|------|------|------|
| 1. | "Pilarta 22%"<br>sus.k.               | (Clothianidin<br>110 g/l +<br>pymetrozine<br>110 g/l) | 0,6 | 13,9 | 5,3  | 2,1  | 3,3  | 67,5 | 88,3 |
| 2. | Konfidor 20%<br>em.k.<br>Andoza       | Imidacloprid<br>200g/l(III havfli<br>snif )           | 0,3 | 13.2 | 5,6  | 2,3  | 3,2  | 64,0 | 86,5 |
| 3. | Mospilan 20<br>% e.kuk. andoza        | (Acetamiprid<br>200 g/kg)                             | 0,3 | 12.9 | 5.9  | 2,4  | 3,5  | 63,2 | 85,6 |
| 4. | Nazarot<br><br>(Ishlov<br>berilmagan) |                                                       |     | 12.7 | 14.9 | 16.5 | 21.3 | -    | -    |

**Xulosa.** Tajriba natijalari asosida shunday xulosa qilish mumkinki, pomidor va bodring maydonlarida issiqxona oqqanotiga qarshi Plarta 22% sus.k. preparatini 0,6 litr me'yorida o'z vaqtida va sifatli qo'llaydigan bo'lsak, biologik samaradorlik ham yuqori bo'ladi. Preparatlarni qo'llash vaqti kunning salqin vaqtiga amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кимсанбаев Х.Х., Рашидов М.И., Кодиров А., Сулаймонов Б.А., Захидов Ф.М. /Энкарзия оққанот текинхўрини кўпайтириш ва кўллаш. Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – 156.
2. Xo'jayev Sh., Mamatov K., Alimuxamedov S., Xoldorov M. Sabzavot ko'chatlarini himoya qilishning yangi texnologiyasi// J. O'z.qishloq xo'jaligi - № 12. – Toshkent, 2014. - 26 b.
3. Xo'jayev Sh.T. Insektitsid, akaritsid, biologik faol moddalar va fungitsidlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar. – Toshkent. 2004. – B.35-36.
4. Toshtemirov A. Xaytbayeva N.S., Abdullayev M.I., Sabzavot ekinlarining tuproq mikroflorasi (Samarqand viloyati sharoitida). AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI ilmiy-amaliy jurnal maxsus son (3) 2023 y. 298-300 betlar.
5. Сулаймонов Б.А., Арипов Ш., Ортиков У.Д., Тожиева М.И., Кимсанбоев Х.Х. Иссиқхона зараркундаларига қарши биологик кураш усулини қўллаш //Қишлоқ хўжалигида экологик муаммолар халқ.илм.амал.анжуман мат.тўплами. -Бухоро, 2003. -Б.354.
6. Сулаймонов Б.А. Помидор зараркунанда ва касалликларига қарши кураш чоралари. ООО Интер. Тошкент, 1997. - 21 б.